

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11074115>

ABDULLA ORIPOV SHE'RLARI LINGVOPOETIK TAHLILI

Norjigitova Sevinch Aliddin qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti

Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: dots. **X.X.Berdiyev**

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan, mashhur shoir, tarjimon, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov she'rlarida aks etgan badiiy aktuallashgan san'atlar, tilshunoslik va adabiyot ilmini birlashtiruvchi lingvopoetik tahlillar haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *she'riy matn, lingvopoetik tahlil, aktuallashgan leksik vositalar, badiiy takror, ma'no ko'chirlari.*

ANNOTATION. *In this article, one of the mature representatives of modern Uzbek literature, poet, translator, Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov's poems, presents artistic arts and linguopoetic features.*

Key words: *poetic text, linguopoetic analysis, artistically relevant lexical means, desthetic properties.*

Abdulla Oripov – o'zbek shoiri va jamoat arbobi. Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini namoyon etadi. Uning she'rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi. 1998-yil Abdulla Oripov "O'zbekiston qahramoni" unvoniga musharraf bo'lgan.

Abdulla Oripov she'rlarini ona Vataniga bag'ishlaydi. "O'zbekistonda kuz" she'rida u sevgi va nafosat ila ona diyoringing go'zalligini ifodalaydi:

*Ayni kuz, bog'larning pishgan mevasi,
Chumoli safiga tashlayman razm.
Olma turshagining bordir egasi,
Qari ajinalar qilurlar bazm.*

*Porlab ko'rinadi Qutbda yulduz,
Osmon ham qoramtir — rangi aslidir.
Sariq chakmon qiygan Xizr kabi kuz,
Chindan u donishmand ruhlar faslidir.*

*Afsus, bahorlarim o'rdilar ketib,
Terga botganicha qoldi saraton.
Buyuk tomoshaning so'nggini kutib,
Fasllar oralab kezdin sargardon.*

Ushbu she'rni lingvopoetik tahlil qilar ekanman, she'rning birinchi to'rtligiga e'tibor qaratamiz. Bunda *mevasi* va *egasi* so'zlari qofiyani hosil qilgan va *-si* egalik qo'shimchasi orqali Mutlaq qofiya yuzga kelgan. Razm va bazm so'zlari esa qofiyaning muqayyad turini hosil qilgan. Birinchi misraga qayta nazar soladigan bo'lsak, bunda ajratilgan bo'lak yaqqol namoyon bo'lgan, ya'ni "*Ayni kuz, bog'larning pishgan mevasi*" va bunda qo'llangan vergul ajratilgan bo'lakning asosiy unsuri bo'lib xizmat qilgan. Uchinchi misrada esa kesim o'rning almashishi inversiya hodisasini paydo qilgan. *Yulduz, osmon* so'zlari va *fasl, kuz* so'zlari bir uyaga mansub bo'lgan uyadosh so'zlarni hosil qilgan. *Asl* va *fasl* so'zlari qofiya bo'lib, *l* tovushi raviy bo'lib xizmat qilgan. Uchinchi to'rtlik modal so'z bilan boshlanib, shoirning chuqur dard-u alamlarini yanada kengroq ifodalashga xizmat qilgan. Bu misrada *-lar* ko'plik

qo‘shimchasidan *bahor* va *o‘tdi* so‘zlariga qo‘shilib, umrining eng shirin damlarining o‘tganligini kuchaytirish ma’nosida foydalanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ta’kidlashicha, Abdulla Oripov she’riyatining bugungi ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir.

“XAYRLASHUV” she’ri tahlili:

*Xayr, ey, bearmon kezgan qirlarim,
Xayr, ey, yiroqqa qochgan so‘qmoqlar.
Xayr, ey, maskanim - tuqqan yerlarim,
Xayr, ey, sahrolar, xayr, ey, tog‘lar.*

Ushbu 2 baytda “*xayr*” so‘zi undovni, “*ey*” undalmani, *qir va yer, so‘qmoqlar* va *tog‘lar* qofiyadosh so‘zlarni tashkil etgan bo‘lib, bunda “*ey*” undalmasi orqali *nido, qir, yer, so‘qmoq* va *tog‘* so‘zlari tanosub san’atini hosil qilgan.

Ma’lumki, inson hayotining eng qizg‘in, esda qolarli davri bolalikdir. Bunda shoir beg‘ubor bolaligi o‘tgan, unutilmas onlarning o‘tishiga sabab bo‘lgan qadrdon maskanlari bilan vidolashmoqda. Bu holat qanchalik qiyin bo‘lmasin, shoir tuyg‘ularini ichiga sig‘dirolmay qog‘ozga bitgan.

*Endi sizni qayta qucha bilmasman.
Inja diydoringiz endi o‘zgadir.
Shamollar, siz bilan ucha bilmasman,
Chechaklar, endi siz menga beqadr.*

Mazkur to‘rtlikda “*bilmasman*” so‘zi yig‘iq radif, *shamollar* va *chechaklar* so‘zlari undalmani ifodalab kelgan. *Qucha bilmasman, ucha bilmasman* birliklari ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasini hosil qilgan. *Men* va *siz* olmoshlari tazod badiiy san’atini tashkil etgan.

*Oshno kengliklarga tashlab jim nazar,
Tirqirab keladi ko'zlarimga yosh.
Shamollar holimdan olganday xabar,
Bir lahza teppamda tinganday quyosh.*

Oshno kengliklar, jim nazar tashlamoq, yosh keladi, ko'zlarimga keladi - bular so'z birikmalari bo'lib, bunda kengliklar so'zi bilan ifodalangan o'tli, tashlamoq, keladi so'zlari bilan ifodalangan fe'lli so'z birikmalari bor. Shuningdek, nazar-xabar, yosh-quyosh so'zlari qofiyalar qatorini hosil qilgan. Ushbu misrada, umuman olganda, inversiya hodisasi yuz bergan, ya'ni kesimning joy almashishi.

*Ulardan nogahon tinglayman xitob:
Shoirim, sen qayga qaytmoq bo'libsan?
Kim seni badarg'a qilmish, ber javob,
Sen nechun alvido aytmoq bo'libsan?*

Xitob so'zi bu yerda umumlashtiruvchi so'z bo'lib kelgan. Shoirim undalmani, qaytmoq va aytmoq so'zlari bir harf bilan farqlanuvchi paronim bo'lib, raviyni ifodalab kelgan. So'roq gaplar orqali tajohil-u orif san'ati hosil bo'lgan. Bundan tashqari, olmoshning ikki xil ma'no turi ham qo'llangan.

*Go'zal bu dunyoga kelib ketmoqlik
Nahotki shuncha jo'n, shunchalar oson?!
Yulduzlar shivirlar, dillari dog'lik:
Yo o'zga sir bormi? Aytgil, qadrdon!*

Ushbu misralarni tahlil qiladigan bo'lsak, ketmoqlik so'zi harakat nomi, jo'n va oson so'zlari ma'nodoshlik, qadrdon undalmani hosil qilgan. -lar qo'shimchasi kuchaytiruv-ta'kidni ifodalab kelgan.

Bu she'rdagi vaqtning shu qadar jadallik bilan o'tib ketayotganligiga ishora qilingan.

*Yo'q, deyman va lekin sim-sim yig'layman,
Qirq ko'zgu keladi qarshimga bot-bot,
Dilbar kunlarimni bir-bir ilg'ayman,
Misli oynaga boqqanday Farhod.*

Birinchi qatorda bog'langan qo'shma gap ishtirok etgan bo'lib, *sim-sim* holat ravishi fe'lga bog'lanib ta'sirchanlikni oshirgan. Asosan, bu to'rtlikda takror so'zlar orqali mazmuniy bo'yoqdorlik aks etgan. *Farhod* obrazi orqali talmeh, *-day* qo'shimchasi orqali tashbeh san'ati yuzaga kelgan.

*Endi qaytib kelmas u damlar sira,
Shul sabab dilda g'am, ko'zlarimda yosh,
Qoldi qaylardadir yoshlik – bokira
Quduq tublariga cho'kkanday quyosh.*

Navabatdagi to'rtlikda aniq va mavhum otlardan, tire belgisi orqali ajratilgan bo'lakdan, olmoshning ma'no turlaridan va inversiya hodisasidan foydalanilgan. Shoir ushbu misralarida yoshlikning o'tib ketganligini quduq tubiga g'arq bo'lgan quyosh nurlariga qiyoslamoqda.

*Hayajon bu - o'lim, kulfatdir - qo'shiq,
Qilt etgan shamoldan titramas yurak.
Unga endi na dard, na quvonch, na ishq,
Balkim, to'ng'ib qolgan bir orom kerak.*

Mazkur bandlarda tire tinish belgisi orqali ajratilgan bo‘lak, *dard, quvonch, ishq* so‘zlarida bir-biriga ziddiyat, *qo‘shiq va ishq* so‘zlaridagi *q* tovushi yordamida muqayyad raviy hosil bo‘lgan.

Hayot deb atalgan xush tilak bilan

Kechalar behudud o‘yga tolurman.

Tosh qotgan, nogiron shu yurak bilan

Mo‘ysafid quyoshni qarshi olurman.

Ushbu misraning semantik tomonini tahlil qiladigan bo‘lsak, inson butun hayoti davomida harakatdan to‘xtamasdan mehnat qilib yashagan chog‘i quyoshning tong sahar endi tog‘lar bag‘ridan bosh ko‘targaniga shoir mohirlik bilan qiyoslab tasvirlaydi. Quyoshning peshindan keyingi og‘ishi umrida oq-u qorani boshidan kechirib, soch-soqoli oqarib qolgan mo‘ysafid kishiga tashbeh qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Abdulla Oripov - qalami o‘tkir ijodkor, uning she’rlari qalb qo‘ridan otilib, qalb tubiga yetib boradi. Quyida talil qilingan she’rning umumiy lingvopoetik tahlilini oladigan bo‘lsak, undalmalardan, so‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan, so‘z birikmalaridan, turfa xil badiiy san’atlardan o‘rinli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1999.
2. Qo‘shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.
3. <https://arboblar.uz> sayti.